

Sirdaryo tuman axborot-kutubxona markazi
axborot-bibliografiya xizmati



15-may Xalqaro oila kuni
bibliografik qo‘llanma

2024-yil

Bugun, 15-may kuni jahon miqyosida Xalqaro oilalar kuni (International Day of Families) sifatida nishonlanadi. Ushbu bayram BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1993-yil 20-sentyabrdagi Xalqaro oila yili to'g'risidagi rezolyutsiyaga muvofiq 1994-yilning 15-mayidan buyon muntazam ravishda nishonlanib keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808-son qaroriga muvofiq, 15-may har yili Xalqaro oila kuni sifatida respublika bo'ylab keng nishonlanishi belgilab qo'yildi.

Ma'lumki bir necha yildan buyon respublikamizda 15-may – xalqaro oila kuni sifatida nishonlanib kelmoqda. Oila jamiyatimizning boshlang'ich bo'g'ini, elimizning go'zal urf-odatlarini va qadriyatlarini o'zida aks ettiruvchi muqaddas mo'jaz maskan. Ezguliklar oiladan boshlanadi, undan mahallaga ko'chadi, jamiyatga kirib boradi.

Oila jamiyatning negizi, bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatdan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. "O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'larining va yaqin insonlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir" deb ta'kidlagan.

Bu qadriyatlar asrlar osha avloddan avlodga me'ros bo'lib kelmoqda. Binobarin, bugungi kunda oila institutsional ahamiyatga molik jamiyat bo'lagiga aylanib 2020-yilning 15-aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi hujjatda vazirlikning asosiy vazifalari etib "oila institutini mustahkamlash bo'yicha, eng avvalo, "Sog'lom oila — sog'lom jamiyat" g'oyasini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko'maklashishni tashkil etish; xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga oid davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash" kabi muhim ahamiyatga ega masalalar belgilangani oilaning uni tashkil etuvchi shaxslarning huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jihatlari davlat siyosati darajasida ko'rilayotgani, bu esa barcha islohotlar inson manfaatlariga xizmat qilayotganining yaqqol misolidir.

Islom ta'limotlari bo'yicha, oila har qanday jamiyatga asos bo'luvchi g'isht kabidir. Bir boshliq, rahbari bo'lmasa, u ham parokandalikka yuz tutadi. Shunga ko'ra Alloh taolo erni oilada boshliq – rahbar etib qo'ygan. Chunki erkak kishi ham jismonan,

ham ma'nanshu maqomga loyiqdir. Oilaning barcha nafaqasi, sarf-xarajati, uni himoyalash erning zimmasidadir. Ammo erkak oilani boshqarishda aslo qo'pollik, zulm qilishi mumkin emas.

Qolaversa, erning rahbar qilinishi mutlaqo ayolni kamsitish emas. Ayrim g'animlar da'vo qilayotganiday uning huquqlarini cheklash ham emas, balki oila-ro'zg'orning tashvish-mashaqqatlaridan fitran nozik yaratilgan ayolni ozod qilib qo'yish, turmush og'irliklarini tabiatan baquvvat erkakka yuklashdir. Qolaversa, erning rahbarlikka ma'naviy huquqi ham bor. Chunki u ayolga nisbatan ehtirosi va hayajonini jilovlay oladigan bo'lgani uchun ham oila totuvligining garovi sanaladi. Alloh taolo hech bir ishni behikmat qilmaydi. Jumladan, erkak kishi oila rahbari bo'lsa va u o'z rahbarligini shariatda ko'rsatilgandek ado etsa, bunday oilalar baxt-saodatga erishadi, inshoalloh. Bu ko'rsatmalarga yurmagan oilalar esa, baxtsizlikka uchramoqda. Shunday oilalardan tashkil topgan jamiyatlar ham kulfat va bebaxtlikka duchor bo'lmoqda. Aslida, bu rahbarlik mas'uliyatdir. Mas'uliyat bo'lganida ham, ulkan mas'uliyatdir.

Ushbu mas'uliyatga binoan, erkak kishi oilaning, jumladan, ayolning homiyligini, boquvini, muhofazasini ado etmog'i lozim. Yurtimiz oilaga jamiyatning asosiy negizi sifatida qarab, sog'lom oila muhitini yaratish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakillantirish borasida juda ko'p xayrli ishlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, yurtimizda, birinchi navbatda, yangi qurilayotgan yosh oilalarga e'tibor qaratishni ustuvor vazifa, deb biladi. Ular tomonidan yosh oilalar ijtimoiy himoyaga olinib, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda. O'zbek xalqi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu hayo, mehru oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakillanishining guvohi bo'lamiz. Bugungi kunda ham ana shu an'analarni davom ettirib, o'zbek oilalari oilaning sog'lom iqlimi, ota-onaning bir-biriga mehri va hurmati sharoitida, oila bag'rida farzandlarini el-yurtining munosib o'g'il-qizlari, Vatanining haqiqiy sodiq fuqarosi bo'lib voyaga yetishlarida jon kuydirmoqdalar.

Payg'ambarimiz sallolohu alayhi vasallam otaning farzandiga qiladigan moddiy ta'minotidan ma'naviy ta'minoti ustun turishini ta'kidlab "Hech bir ota o'z farzandiga go'zal odobdan ham ortiqroq hadya bera olmaydi" deydilar (Termiziy rivoyati). Ota-onalar bolaning tabiati, xulq-atvori shu oiladagi muhitga qarab shakillanishini esdan chiqarmasliklari zarur. Ularning vazifasi xuddi tajribali tabibning bemorga nisbatan munosabatiga o'xshash bo'lishi kerak. Ma'lumki, solih farzandlar osmondan tushmaydi. Balki ota-ona nazoratida oila ichida tarbiyalanib, voyaga yetishadi.

Bolalar tarbiyasiga ular yosh vaqtlarida beparvo bo'lish, yomon kishilarga aralashib yurishlariga yo'l qo'yish zararli oqibatlarga olib keladi. Sodda qilib aytsak, bola qalbi har turli yozuv yozish mumkin bo'lgan bir oq qog'ozga o'xshaydi. Unga mumkin qadar yaxshi yozuvlar yozish kerak. Ular tarbiyasiga astoydil kirishish, yaxshi kishilar bo'lib yetishishlari uchun butun imkoniyatlarini ishga solish zarur. Tarbiya haqida Imom G'azzoliyning "Ihyou ulumuddin" kitobida shunday deyiladi: "Bola ota-ona qo'lida bir omonatdir. Qalbi turli naqsh va rasmlardan pok, nima naqsh solinsa, qabul qiladi, nimaga moyil qilinsa, moyil bo'laveradi. Agar yaxshilikka undalsa va o'rgatilsa, uning ustida o'saveradi, dunyo va oxiratda saodatli bo'ladi, ota-onasi hamda odob, ta'lim tarbiya berganlar barchasi savobga sherik bo'lishadi.

Agar yomonlikka undalsa va hayvon kabi bo'sh qo'yilsa, yomonlikka uchraydi, xalok bo'ladi va unga qarab turgan kishi zimmasiga gunohkorlik tushadi". Hurmatli namozxonlar! Dinni niqob qilib olgan turli ekstremistik va missionerlik oqimlari a'zolarining ta'siriga tushib qolishdan ogoh va sergak bo'lmoqligimizni doimo yodda tutishimiz kerak. Farzandlarimizning yozgi ta'til kunlari ham yaqinlashib qoldi. Mana shu munosabat bilan farzandlarimizni vaqtini behuda o'tkazmasliklari uchun ularni turli to'garaklarga va sport musobaqalariga jalb qilishimiz lozim bo'ladi.



FARZAND TARBIYASI otasining pushti kam aridan ona rahmiga o'tm aguncha, er xotin bir birlarig a faqat hayot sheriklari bo'ladilar. Shu m uddatda ularning ishlari bir-birlarining og'irligini yengillashtirishdan iborat bo'lib, boshqa vazifalari bo'lmaydi. Biroq bola ona rahm idan joy olgan zahoti, er-xotin bolani nobud bo'lishiga olib keladigan har qanday xatti-harakatlardan voz kechishlari lozim. Bu vazifa uncha m ushkuil emas. Oiladagi eng og'ir vazifa bola tug'ilgandan

keyingi farzand tarbiyasidir. Farzand tarbiyasi aslida ikki kalim adan iborat. Shuning uchun ham nazaringizda juda m ayda m uam m odek ko'rinadi. Lekin dono odam lar biladilarki, bani O dam ning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarining asosi ana shu ikki so'z — «bola tarbiyasi»dan iborat birikm aga bog'liq.

Bu xalqning harakat qilishi, davlatm and bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurm at topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi, bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq. Bir hakim aytgan ekan: «Bani Odam bolalarining tarbiyasini m eng a qoldirsalar, odam larning ahvolini butunlay o'zgartirib yuborar edim». Jahon xalqlarining ahvolini bugun mulohaza qilsangiz, shu hakim ning so'zlari tasdiqlanadi. Hozirda 40 million ingliz, 400 million hindiy va afrikaliklar ustidan hokimdir.

Chin hukum ati 400 million aholisi bilan 40 million yaponning hiyla va nayrangi o'yinchog'iga aylangan. 60 million olm onlar ikkita zaif davlat (Avstriya va Turkiyajni yonlariga olib, aholisi 750 m illionga teng keladigan yetti davlat bilan urush qilyapti. Kishining nazarida ajib va g 'aroyib ko'rinadigan bu voqealar tarbiya ta 'siridandir, zero bolalarning tarbiyasi bu farzandni jism onan, fikran va ax lo q an tarb iy a qilib, kam olga yetishtirish dem akdir. Ya'ni ularni urinish va tirishish sahrosiga, y a 'ni hayo t-m am o t m aydoniga kuchli badan, sog'lom fikr va yaxshi axloq bilan qurollantirib yuborish dem akdir. M a'lumki, inglizlar hind va misrliklardan, yaponlar Chin xalqidan jismonan, fikran va axloqan ancha komildirlar.

Ularning bu kamolotlari tarbiya natijasidir. Endi kelinglar, ko'raylik-chi, biz musulmonlar, xususan, turkistonliklar o'z farzandlarimizga tarbiya beryapmizmi yoki yo'qm i? Savolning oxiridagi so'z bunga javob bo'la oladi, y a'ni «yo'q!» M en buni shunday isbot qilaman. Biz turkistonliklar bolalarim izdan ko'ra m ollarim izga yaxshiroq qaraymiz. E shak va q o 'y larim izn i farzandlarim izdan ham ko'proq yaxshi ko'ramiz, deb aytmayapm an. Yo'qyo'q, bolalarimiz jonimizdan ham aziz. Ular nazarimizda ham m adan suyuqli va aziz. Lekin baxtimizga qarshi shuni e 'tirof qilish lozimki, shuncha m uhabbat va m ehrga qaram asdan, eshak va qo'ylarimizdan kam roq tarbiyalaymiz! M ening bu so'zlarimdan hayron bo'lm ang, sabr qiling, d a'voimni isbotlayman. Falon narsani tarbiyalash, ya'ni uni asta-sekin kam olga yetishtirishdir. Nazarimizda qo'yning kamoli uning semizligi va sog'lomligidadir.

Eshakning kamoli uning kuchi, oyoqlarining baquw atligi va yaxshi yurishidadir. Faraz qiling, qo'zi yoki xo'tik sotib olib uyga keltirasiz. Diqqat bilan ularga qarab, bir m uddatdan keyin qo'yni semirtirib, eshakni baq u w a t va y o

'rg'a qilasiz, ya'ni ularni tarbiyalab, kamolga yetishtirasiz. Ammo aziz farzandlaringizga shunday diqqat bilan tarbiya berm aysiz. Bahona qilasizki, bolangiz ham kam olga yetishgan.

E'tiroz qilishingiz m um kinki, biz m ollarim izni boqishga qancha harakat qilsak, farzandimiz tarbiyasiga ulardan yuz barobar ko'proq harakat qilamiz deb. Bu da'voingiz m a'lum bo'lsa-da, ammo to'g'ri emas. Dalil shulkim, kimning uyida moli bo'lsa, tekshirsa ko'radiki, yil davom ida uning mollaridan bittasi ham kasal bo'lm agan, ammo farzandi hech b o 'lmasa, uch marta xastalikka chalingan. Bas, m a'lum bo'ladiki, u kishi molining kasal bo'lm asligiga k o 'p roq e'tibor berar ekan. So'zingiz to'g'ri bo'lsa ham m ening da'voim ga hech zarari yo'q, chunki bolaning sog'lig'iga e'tibor berish ham farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishni bildirmaydi. H aqiqatan agar odam qo'y va eshakka o'xshab kamol topishi sog'liq, bilaklarining kuchligigi bilan chegaralanib qolganda edi, biz ham farzand sog'lig'i uchun bo'lgan harakatni, farzand tarbiyasi deb atardik. Tan-u to'shli va sog'lom bolani kam olga yetishgan deb qabul qilardik. Odam ning kamoli faqat sog'liq va kuchdan iborat bo'lmay, balki jismonan, aqlan va axloqan yuksalishdan iborat. O dam ning jismi, aqli va axloqi turli kasallik va nuqsonlardan uzoq bo'lishi lozim. Odam ham o'z manfaatini o'ylab, ham yaqinlarini baxtiyor qilishga qodir bo'lib o'sishi lozim. Zotan, bu m antiqiy olishuvlarga nima hojat bor? Agarda ko'zingizni xurofot va manmanlik pardasi to'sm agan bo'lsa, Buxoro va Buxoro ahliga nazar tashlang! Hamma narsa kundek ravshandir. O 'rningizdan turing-da, hikm at kam arini belingizga bog'lab, aql 72 va hikm at mezoni bilan jismoniy, fikriy va axloqiy ahvollariningizni tekshiring. Aksar bunga hafsalamiz yetmaydi. Shunday bo'lsa m engam ham rohlik qilsangiz, men shu xususda ham sizga yordam beraman. Bismilloh! Uydan chiqib katta yo'l bilan Devonbegi hovuzining labiga borib, boshqa yo'l bilan uyga qaytib keldik. Bu sayohatimiz bir soat davom etdi. Ana shu sayohatimiz davom ida diqqat qilgan bo'lsangiz, yo'l-yo'lakay o'ttiz-qirqta sil kasal, yigirm a o'ttizta tepakal, o'n -o 'n bitta ko'r, soqov, shuncha oqsoq, kam ida to'rt-besh shol va pesni uchratdik. Qolganlar, sizningcha sog'-salom at edilar, ya'ni har qanday xastalikdan ozod edilar. Lekin mening nazarimda, ular ham har xil kasalliklarga chalingan edilar. Ranglari o'chgan, qom atlari egik. Tanalari notavon, ikki yuz qadam yo'lni oh-voh bilan bosardilar. Uzoqqa bormaylik, ikkalamiz ham bir soatlik sayohatimiz chog'ida ancha charchadik. Hozir a'zoi b adanlarim iz o g 'rim o q d a. X ullah, xalqim izning sog'lig'i shu darajada. Endi ularning fikriy ahvollarini tadqiq etaylik. Buxoro aholisi turli toifa va guruhlardan iborat. Ba'zilar mulla, ba'zilar sipohi. Bir guruh tijoratchi, bir toifa kosiblar va tol da dehqonlardan iborat. Ana shu guruhlarning fikriy ahvolini birm a-bir tadqiq qilishimizga to'g'ri keladi.

1993 yil 20 sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Xalqaro oila yili to‘g‘risida”gi rezolyusiyasi qabul qilingan. Ushbu xalqaro xujjatiga muvofiq 1994 yildan boshlab 15 may – Xalqaro oila kuni (International Day of families) sifatida dunyoning deyarli barcha davlatlarida nishonlanadi.

Xalqaro oila kunini nishonlashdan maqsad oilalar bilan bog‘liq muammoli masalalarga davlat va jamoatchilik e‘tiborini qaratish, oilalar ahvoriga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirishdan iborat. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida azaldan insoniy qadriyatlar, milliy madaniyat va avlodlar davomiyligini asrovchi qo‘rg‘on, barqarorlik va taraqqiyot omili bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

Oila – muqaddas dargoh

Oila – muqaddas va qutlug‘ dargoh. Inson shu dargohda tug‘iladi va voyaga yetadi. Oilani jamiyatning kichik bir bo‘g‘iniga qiyoslash mumkin. Ma’lumki, oila – insonning tug‘ilishidan to umri poyoniga qadar bo‘lgan hayot mazmunini qamrab olgan, ta’lim-tarbiya, iymon-e’tiqodning asosiy poydevori shakllanadigan maskan. Mehr-oqibat rishtalarini, odamiylik mezonlarini, milliy qadriyatlarni e’zozlab-avaylaydigan, kelgusi avlodlarga to‘kis yetib borishini ta’minlaydigan mo‘tabar dargoh.

Darhaqiqat, xalqimiz azaldan oilani muqaddas, muborak dargoh sifatida e’zozlagan, bu qo‘rg‘onga zavol yetmasligi uchun asrab-avaylashgan. Zero, oilani boshqarish, farzandlarni xalqqa, vatanga munosib avlod qilib yetishtirish mas’uliyatli vazifadir. Afsuski, ba’zan bu borada bilim, tajriba va tarbiyaning yetarli bo‘lmagani tufayli ko‘prok yoshlar o‘rtasida ajrashish holatlari uchrab turadi. Arzimagan bahonani sabab qilib oilalar buzilib, begunoh va beg‘ubor farzandlar tirik yetim bo‘lib qolmokda. Ayol oqila, fozila, jonkuyar bo‘lsa va turmush o‘rtog‘ini qadrlasa, er bosiq, jiddiy, mehribon, farzandlari, ahli ayoliga jonkuyar bo‘lsa, oila mustahkam bo‘ladi. Er-xotin o‘rtasida mehr-oqibat bo‘lishi kerak.

Yurtimizda oilani mustahkamlash, sog‘lom va barkamol avlodni kamol toptirish borasida izchil va samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida avvalgi “Oila” bobi – “Oila, bolalar va yoshlar” deya qayta nomlandi, shuningdek ushbu bobga qo‘shimcha ravishda yoshlarga oid alohida modda kiritildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 76 moddasida: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir”, deyilgan.

Oila azal-azaldan insonni har tomonlama barkamol va komil qilib voyaga yetkazadigan, insoniy fazilatlar va xislatlarni shakllantiradigan, o‘zlikni milliy, mintaqaviy, umumbashariy va borliq xaqiqati darajasida anglatadigan, milliy hamda umumbashariy qadriyatlarga sadoqat ruhini kamol toptiradigan beqiyos va

betakror tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat o'chog'i hisoblanadi. Oila bergan mehru ma'rifatni inson boshqa hech qaerdan topa olmaydi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda yosh oilalar uchun qurilayotgan zamon talablariga to'la javob beradigan uylar, ularga berilayotgan uzoq muddatli imtiyozli kreditlar oila institutiga qaratilayotgan katta e'tiborning yana bir tasdig'idir. Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlar rivojini ta'minlovchi, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib, tarbiyalovchi maskandir.

Jamiyat va oila

Oila — jamiyatning asosiy boshlang'ich bo'g'ini, go'zal urf-odatlar, milliy qadriyat va an'analarlarni o'zida asrovchi, asrlar osha tarbiyada o'ziga xos milliylikni shakllantiruvchi muqaddas maskan. Oila tinch bo'lsa, mahalla tinch, jamiyat farovon, davlat mustahkam bo'ladi. Ezguliklar oiladan boshlanadi, undan mahallaga ko'chadi, jamiyatga kirib boradi.

Vatanga sadoqat, ota-onaga oqibat, oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-muruvvat omillari o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga oilada singdiriladi. Oiladagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirish ota-onada farzandlar, farzandlar oldida ota-onaga nisbatan burchlarini, ularning jamiyat oldidagi mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Insonning hayoti oiladan boshlanadi. Oila – hurmat, hamjihatlik va mehr-muhabbat manbaidir. Oila farovonligi – mamlakat taraqqiyotining o'lchovidir. Oila – hayot abadiylikni saqlaydigan, ko'p asrlik urf-odatlarimiz, an'analarimiz va qadriyatlarimizni avloddan-avlodga meros qilib qoldirib kelayotgan muqaddas qo'rg'ondir. Shu boisdan ham yurtimizda oilalar mustahkamligini ta'minlash, unda o'zaro mehr-oqibat, hamjihatlik va do'stona munosabatlar hukmron bo'lishiga erishish uchun alohida e'tibor qaratilmoqda.

Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz ta'kidlaganidek, tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Darhaqiqat, har tomonlama yetuk, barkamol va komil shaxsni tarbiyalashda oilaning o'rni beqiyos. Tarbiyaning asosiy o'chog'i hisoblangan oila millat davomiyligini saqlash, milliy qadriyatlar rivojini ta'minlaydigan yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'nan va jismonan sog'lom qilib tarbiyalaydigan muqaddas maskandir. Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy muhit sog'lom qaror topgan oilada bolaning ongi yaxshilik, ezgulik, mehr-oqibat, odamiylik, or-nomus, g'urur, samimiyat, to'g'riso'zlik kabi fazilatlar bilan to'lib, jamiyatga kerakli inson sifatida voyaga yetadi.

Mamlakatimizda baxtli va farovon oilalar soni ko'paysin. Har bir oila tinch-osoyshta va baxtli bo'lib, yurtimiz ravnaqi va barqarorligiga asos bo'lsin.

Adabiyotlar

Ўилам билан хар кун бир хаёт дарси ўрганамиз. [матн]: ибратли ривоятлар хикматлар / Тошкент: Sano -standart нашриёти, 2019.-352 б.

Fitrat Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari[matn]: Oila ilmi / A.Fitrat.- Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019.-144 b.

Канбу И. Вафодор ва бевафо Аёллар қиссаси. [матн] : қисса / И. Канбу.- Тошкент: Камалак, 1992.-144 б.

Мусрмонова О. Оила Маънавияти миллий ғурур [матн]: Ўқув қўлланма / О. Мусурмонова.- Тошкент: ўқтувчиб 2000.-200 б.

Назимо А. Қизлар тарбияси. [матн]: Қизлар одоб / А. Назимо.-Тошкент: Камалак, 1994.-64 б.

Соғлом она -соғлом бола. [матн]: Азиз келин киёвларга еслатма.-Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашр, 2003.-16 б.

Бахтли она бўлинг. [матн]: Фарзандни туғлгандан кейинги давр саломатлик йилномаси.- Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашр, 2003.-48 б.

Малик Эркин. Дуо олган келинчак [матн]: хикоялар пандномалар / Э. Малик.-Тошкент: Шарқ, 2019.-336 б.

Онажон [матн]: шерлар /А. Жўраев.-Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018.-552 б.

Vaqtli davriy nashrlarda

Абдукаримова, М.Янги Ўзбекистон оилалари феномени: [15 май-халқар оила куни] /М. Абдукаримова // Янги Ўзбекистон.-2023.-13 май.-Б.3

Турдиева, Р. Муқаддас қўрғонимизга гард юқмасин:[15 май – халқаро оила куни] /Р.Турдибоева // Яни Ўзбекистон.-2023.-13 май.-Б.3 []

“Ўила куни” нишонланди: [15-май халқаро оила куни] // Yangi Sirdaryo.-2023.-19.-май.-Б.4